

TANG'UT DAVLATINING OLTON IMPERIYASI BILAN MUNOSABATI

Ismoilova Dilnoza Shuhrat qizi
O‘zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti
FXIT-2109 guruh talabasi

Matyoqubov I
Ilmiy rahbar:
O‘zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘rta asrlar uzoq sharqdagi tarixiy hamda siyosiy jarayonlar, shuningdek davlatlararo munosabatlar, buyuk ipak yo‘li hamda turkiy millatlar tomonidan xitoy hududini egallanishi. Shu bilan bir qatorda hududning siyosiy va ma’muriy boshqaruvi uzoq sharqdagi siyosiy ahvolni hamda buyuk ipak savdo yo‘lini muhimlik darajasini, bundan tashqari buyuk ipak yo‘li nafaqat savdo yo‘li. Balki, madaniyatlar almashinuvida ham o‘ziga hos muhim o‘rin egallaganligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: uzoq sharq, diplomatiya, boj, qurultoy, mudofaa, ma’muriy tuzilma, saltanat, buyuk ipak savdo yo‘li, ittifoq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются исторические и политические процессы на средневековом Дальнем Востоке, а также межгосударственные отношения, Великий Шелковый путь и завоевание тюркскими народами территории Китая. В то же время политическое и административное управление территорией определяло политическую ситуацию на Дальнем Востоке и степень важности Великого Шелкового пути, причем Великий Шелковый путь был не только торговым путем. Возможно, было заявлено, что он также занимает особое место в обмене культурами.

Ключевые слова: Дальний Восток, дипломатия, таможня, конгресс, оборона, административное устройство, королевство, Великий шелковый торговый путь, союз.

ABSTRACT

This article examines the historical and political processes in the medieval Far East, as well as interstate relations, the Great Silk Road and the conquest of the territory of China by the Turkic peoples. At the same time, the political and administrative management of the territory determined the political situation in the Far East and the degree of importance of the Great Silk Road, and the Great Silk Road was not only a trade route. It may have been stated that it also occupies a special place in the exchange of cultures.

Keywords: far east, diplomacy, customs, congress, defense, administrative structure, kingdom, great silk trade route, alliance.

1115-yilga kelib uzoq sharqda siyosiy axvol tubdan o'zgardi. Uzoq shimoliy sharq tarafda yangi qabilalar ittifoqi yoxud yangi buyuk oltin sultanati paydo bo'ldi. Aynan o'sha yilning bahorida Sun sultanatining ikki yuz minglik qo'shin qo'mondoni Lyu Fa(驴发Lu fa) boshchiligidagi armiyasi bilan Tang'ut davlatiga bostirib kiradi. Ular Xuanchjou(欢周Huanzhou)dan ikki yo'nalish bo'ylab harakatlanishadi.⁶¹ 1114-yilda Szandixe(占地河Jandihe) daryosi qirg'og'iga qal'a qurgan edilar. Shu qal'a tufayli xitoyliklar tang'utlarning katta qarshiligiga uchraydilar va bu urush 1119-yilda Tang'utlar g'alabasi bilan yakunlanadi. Biroq bu urush har ikki tarafga ham katta talofat yetkazdi. Lyu Fa bu talofat haqida Sun imperatori bilib qolmasligi uchun Tung'ut davlati qo'mondoniga ko'plab pora beradi.⁶²

1104-yilda Kidanlar malikasi bo'l mish Chen-an(陈安Chen an) Syan-shun(舜 Jian shun)ga turmushga chiqadi. 1108-yilga kelib ular o'g'il farzand ko'rishadi va uning ismini Jen-ay(珍爱Zhen-ai) deb qo'yishadi.⁶³ 1122-yilda Tang'utlar o'zining o'ttiz minglik qo'shinini Kidaniylarga yordam berish uchun safarbar etadi. 1123-yilga kelib Jurjenlar Tang'ut davlatiga bostirib kelishdan hech qanday manfat yo'qligini biladi va quyidagicha shartlar bilan Tang'ut davlatiga hujum qilmaydi: "Agarda Lyao imperatori Tang'ut davlati hududigi qochsa, Tang'ut davlati uni tutib berishi lozim edi." 1124-yilga kelib ichki parokandalikka uchrab borayotgan, undan tashqari Jurjenlar bosib kelayotgan bu davlatga yordam qo'lini cho'zishning foydasi yo'qligini ko'rib, shundan so'ng jurjenlarni o'zlariga raxnamo deb qabul qilishadi, vassallikni tan olishadi.⁶⁴

⁶¹ Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

⁶² E. I. Kichanov "Tangutlar davlati tarixidan ocherk" "Fan" "Moskva" 1986 yil, 227-256 bet.

⁶³ Ce hai "Beijing 1976 nian" (侧海"北京1976年")

⁶⁴ . Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

1125-yil Tang‘ut davlat qo‘sishinlari Jurjenlarga yordam tariqasida xitoy chegarasiga hujum qilishni boshladilar.⁶⁵ 1126-yil Bahorida Sun qo‘shani chekingandan so‘ng Jurjenlar Tang‘utlarga Tyanь-di(天帝Tian de) va Yunь-jun(晕衡Yun zhun) viloyatlarini tag‘dim etadilar. Ammo ozgina o‘tgandan so‘ng Jurjenlar qo‘mondoni Loushu(麌树Loushu) tang‘ut armiyasini haydab chiqaradi. Ushbu masala yuzasidan Jian-shun jurjenlar saroya arz qiladi, biroq arzi javobsiz qoladi. Jurjenlarning qudratidan qo‘rqan Tang‘ut davlat boshliqlari 1126-yilga kelib ular bilan muzokara olib boradi. Ushbu muzokaralar natijasida Sun sultanatiga qarshi ittifoqdosh mamlakat vujudga keladi. Muzokaralar yakuniga yetgandan so‘ng Tung‘ut qo‘sishinlari Sun sultanati ichra talon-tarajlik ishlarini olib yuborganlar⁶⁶ 1126-yilning oxiri va 1127-yilning boshlarida ular Siyanь(鲜Xian) va Xuayde(徊得Huaide) shaharlarini qo‘lga kiritadi. 1128-yil Sun sultanati uchun juda ham og‘ir keladi. Jurjen qo‘shani Sunlarga ketma-ket xujum boshlaydi. Ayrim Jurjen qo‘mondonlari Tang‘utlar ko‘p yo‘qotish qilayotganini ko‘rib Tang‘utlarni xam o‘z davlatiga qo‘shib olish taklifini ilgari surishadi.⁶⁷ Bu ham bo‘lsa Olton imperiyasining qo‘sinni tarbiyasi va harbiy intizomini kuchayish omillaridan biri edi.

Bu takliflardan Jurjen saroydan tashqaridagi xitoyliklar ham xabardor bo‘lgan. 1128-yilning birinchi yarmida Tang‘utlarga Sunlardan Se Lyan(私莲Si Lian) elchi bo‘lib boradi va uning maqsadi o‘z davlatiga Tang‘utlarni ittifoqdosh qilib olib jurjenlarga qarshi yurish edi.⁶⁸ Ushbu diplomatik uchrashuvga Sun saroyi katta etibor bergen. Sunning o‘g‘illaridan biri elchiga shunday xat yozadi: “Sizning oldingizda muhim masala yotibdi unga nisbatan ma’sulyatliroq e’tibor bering. Biri qirollik oilasini tinchligini saqlsh. Ikkinchisi jurjenlarga talofat yetkazishda Tang‘utlarning qo‘shindan foydalanish.”⁶⁹ Van Shu(王树Wang Shu) Se Lyanь bilan maslaxatlashadi va Tang‘utlar bilan Sun qo‘shinini ittifoqdoshga aylantirishini aytib o‘tadi. Biroq, Tang‘utlar jurjenlardan qo‘rqrar edilar. Shunday bo‘lsada ancha vaqtgacha imperator bir necha oy elchini olib qoladi. Elchi qaytgach Tang‘utlar qo‘shani Sunlarga qarashli bo‘lmish Dinbyanъtszyunъ(金匾君Jinbianjun) qal’asini qo‘lga kiritishadi. Ular Fuyanь(副言Fu Yan)da sun qo‘sishlariga ushbu viloyatni qo‘sish shartini ilgari

⁶⁵. Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi”(李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史 “北京2000年114-154页) Beijing 2000 nian 114-154 ye

⁶⁶. Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi”(李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史 “北京2000年114-154页) Beijing 2000 nian 114-154 ye

⁶⁷ Е. И. Кычанов «Очерк истории Тангутского государства» «Наука» «Москва» 1986-год 227-256 стр.

⁶⁸. Ce hai “Beijing 1976 nian” (侧海“北京1976年”)

⁶⁹ Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi” (李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史 “北京2000年114-154页) Beijing 2000 nian 114-154 ye

suradi.⁷⁰ Huddi Jurjenlar bu viloyatni sovg‘a qilgandek qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Shu paytda Sunlar bosh qo‘mondoni Van Shu shunday javob beradi: “Jurjenlar xali bizning davlatimizga bosib kelmasidan ancha oldin sizlarga Szinsu(金苏Jinsu) va Xetsin(合金Hejin) ni bergan edi. Xozirda u viloyatlarni kim boshqaryapdi? Sizlarning davlatingizda poraxo‘r amaldorlar deb davlatingizni kim ich-ichidan yemirmoqda va qaysi davlatda bunday amaldorlar yo‘q deb o‘ylaysiz? Buning uchun yaxshi qo‘shnilar zarar ko‘rishi kerakmi? Men hozir shu turishimda ham anchagina urushishim mumkin. Agarda niyat butun bir Sunni bosib olish bo‘lsa men bunga tayyorman, biroq bir narsani esdan chiqarmang bizga hujum qilgan Jurjenlar sizga ham albatta xujum qiladi va davlatingizni yakson etadi.”⁷¹

Bu safar Tang‘utlar Sunlarga qarshi chiqishmaydi. Gap shunda ediki Jurjenlarning Tang‘ut davlatiga bostirib kelishini bilardi. Chje(着Zhe) lar oilasi Tang‘utlarni yakson etish maqsadida Jurjenlarga sotiladilar. O‘sha paytda Jurjenlar bu oilaga ishonib Tang‘utlarga qarshi hujum boshlash niyatida bo‘ladi. O‘zlarini Jurjenlar bilan urush olib borish rejalaridan boxabar qilish uchun Kayfin(开丰Kaifeng) hokimi Szunszi (祿击Junji) ishongan odamlarini Tang‘ut va Koryoga elchi qilib jo‘natadi. Sunliklar o‘zlarining bunday hatti-harakatlari bilan avvalam bor o‘zlarining vatanlariga bo‘lgan agressiyani kuchaytirsa, ikkinchidan o‘zlarining davlatlariga qarshi bo‘lgan davlatlarni o‘ziga-o‘zini ovora qilib qo‘yish edi.

Xitoydagagi jurjenlarning ahvoli Tang‘utlarni qo‘rqitib yuboradi. 1129-1130-yillarda Jurjenlar Tang‘utlarni Xitoylardan uzib qo‘yadilar. O‘sha davirda Tang‘utlar Xitoylik qochoqlarni o‘zlarida qabul qiladilar. Bu davrda Olton elchilari keladi va Olton imperatori nomidan shunday deydi: “Tang‘utlar olampanoji o‘zingizning chegarangizni yaxshilab himoya eting toki Xitoylik qochoqlar sizning hududingizga o‘ta olmasinlar.”⁷² 1130-yilda Olton va Koryo elchilari Tang‘ut davlatiga tashrif buyurishganda Tang‘ut davlati podshoxi birinchi bo‘lib Jurjen davlati elchisini kutib oladi. Bu shundan dalolat beradiki, ular Jurjen davlatidan juda qo‘rqishgan. Jurjen davlati Tang‘utlarning bu qilmishidan xabar topadi va ulardan so‘rovnama (Bu diplomatik tilda “Nota” deb ataladi.) talab qiladi. Shu paytda Syan-shun (建楯Jian shun) shunday deydi: “Meni Xeychjou (黑周Hezhou)⁷³ bilan hech qanday aloqam yo‘q.”⁷⁴ Jurjenlar esa bunga ishonishmaydi. 1130-1131yilda Tang‘utlar bir vaqitning o‘zida Yelyu Dashi (E lu da shi) va Janubiy Sun bilan muzokaralar olib borganlar.

⁷⁰ E. I. Kichanov “Tangutlar davlati tarixidan ocherk” “Fan” “Moskva” 1986 yil, 227-256-betlar.

⁷¹ Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

⁷² Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi” Beijing 2000 nian 114-154 ye (李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史” 北京2000年114-154页)

⁷³ O’sha davrda qora xitoylar ko‘chib borgan joyni nomini shuday atashar edi

⁷⁴ . E. I. Kichanov “Tangutlar davlati tarixidan ocherk” “Fan” “Moskva” 1986 yil, 227-256-betlar.

1131-yilgacha jurjenlar Lanchjou (兰州Lanzhou), Sinin (鑫印Xinin) havzasi o‘zning Kukunor va Xeychjou (黑周Heizhou) okruglarida Jurjenlar bilan chegaradosh hududlarda tinchlik o‘rnatgan edilar. Bu tinchlik esa 80 yildan ortiq davom etgan. Ushbu yillar davomida Tang‘utlar Jurjenlarning boj to‘lovchisiga aylangan. Ushbu tinchlik vaqtı-vaqtı bilan buzilib turgan. Masalan: “Tang‘ut Davlati chegarachilari Shensi (神西Shenxi) ga o‘tib talon-tarojlik qilgan”⁷⁵liklari haqida manbaalarda bayon etilgan. Keyinchalik Jurjenlar bunday chegara buzilishiga qarshi o‘ndan ortiq qal‘a qurishadi. 1132-yilga kelib Tang‘utlar jurjenlarga qarshi katta xujumlar uyushtira boshladilar. Borgan sari Tang‘utlarning Jurjenlarga nisbatan qo‘rquvi yo‘qolib, tobora ularning hududiga chuqurroq kirib borar edilar.

1133-yilga kelib Jurjenlarga birin-ketin zarbalar bera boshladilar. 1135-yilda esa Tang‘utlar hududiga ot talab qilib kelgan Jurjenlar harbiy qo‘sini yakson qiladi. Tang‘utlarning bunchalik darajada shuurga to‘lishidan Jurjenlar qo‘rqib ketadi va o‘sha davrning yozma manbaalarida ikki davlat o‘rtasidagi aloqa shu tarzda yoritiladi: “O‘sha vaqtadan boshlab Tang‘utlar bog‘iga Jurjenlar tarafidan hech qanday tosh yog‘dirilmadi va sekin-asta Jurjenlar Tang‘utlardan qo‘rqishni boshladi.”⁷⁶

1136-yilga kelib Lanchjou va Sinin okrugini qayta qo‘lga olishadi. 1137-yilda Jurjenlar okrugi Kochjou (寇周Kozhou), 1146-yilda esa Jurjenlar Tang‘utlarga bir necha chegara oldi hududlarni bo‘shatib bergan.⁷⁷

1155-yilga kelib Jurjenlarda bo‘lgan chalkashliklardan ya’ni Xaylinvan (海领王 Hailinwang) qo‘zg‘alonidan foydalanib, Tayyuan (太远Taiyuan) ni va 1161-yilda esa Jurjen davlatining bir necha viloyatlarini bosib oladi. Ammo ularni qaytarishadi. 1166-1169-yillarda tang‘utlarga o‘tgan Tibetlik oqsaqollar Tang‘ut davlati ichida namoyishlar keltirib chiqaradi.⁷⁸ Ushbu namoyishlardan maqsad, Tang‘ut davlatida buddizm ta’limotini kuchaytirish va ta’lim-tarbiyani diniy ta’limot orqali rivojlantirish edi.

1141-yilda ushbu ikki davlat o‘rtasida yaxshigina savdo aloqalari tiklanadi. Tang‘ut podshoxi Jen-syao(珍晓Zhenxiao) davrida ikki davlatning savdo va iqtisodiy aloqalari bir muncha rivojlanadi.⁷⁹ Vanaxay Jurjenlar davlatidan Tang‘utlar davlatiga elchilik safarini amalga oshirayotganda. Tang‘ut davlati podshoxiga shunday deydi: “Sizlar Lyao davlatidan elchilarni kutayotganingizda joyingizda o‘tirib ham

⁷⁵. Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

⁷⁶. Ce hai “Beijing 1976 nian” (侧海“北京1976年”)

⁷⁷. Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi” Beijing 2000 nian 114-154 ye(李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史” 北京2000年114-154页)

⁷⁸ E. I. Kichanov “Tangutlar davlati tarixidan ocherk” “Fan” “Moskva” 1986 yil, 227-256-betlar.

⁷⁹ Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

elchilarni qabul qilavergansizlar sizlarning ushbu davlat bilan bo‘lgan aloqangiz qarindosh urug‘chilik aloqasiga o‘xshar edi. Endilikda sizlar Buyuk Jurjen davlati elchisining oldida tik turib unga xurmat yuzasidan tazim bajo aylang va turgan holda gaplapping.” O‘zining nutqi so‘ngida: “Siz shuni esdan chiqarmang, sazlar bizning vassalimizsiz bu esa qul degan ma’noni anglatadi.”⁸⁰

Tang‘ut elchilari yangi yil yoki olampanohning tug‘ilgan kuni munosabati bilan Jurjenlarning oldiga kelib ularga tovon to‘lab ketishar edi. Jurjenlar Tang‘ut davlatiga qochgan Kidanlar imperator avlodlari yoki “Ye lu da shi” ko‘tarilib qolishidan hayqishar edi. Biroq Tang‘ut davlati Jurjenlar sultanati inqirozga uchrayotgan davrda ko‘plab yordam bergen edi. Shu sababli ham Jurjenlar ularga tahdid qilishdan o‘zlarini olib qochardilar.⁸¹

Ular Tang‘utlarga hududlar masalasida ham ko‘pgina qulayliklar yaratib berishgan: Syuan-tszun (旋君Xuan Jun) Tang‘utlar vakolatli vakillariga yerlarni sotadi va keyinchalik ushbu yer Tang‘ut davlatining ajralmas bir qismi bo‘lib qoladi. Oradan birnecha yil o‘tib Ay-tszun (艾君Ai Jun) ni tang‘utlar qo‘shib olishadi. 1171-yili Jurjenlar yordam uchun bir veterinar jo‘natishgan.⁸² O‘sha davrda bunday ishlar pul orqali hal qilingan va imperator Syuantszun oldingi jonvorlar va ishchilar bozorlarni qayta tiklashni qaror sifatida qabul qilgan edi.⁸³

Xulosa qilib aytganda, bu ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar o‘zaro ishonch va xamkorlikka qaratilgan bo‘lgan. Biroq, Jurjenlarning Tang‘utlarga nisbatan qilgan siyosatidan so‘ng ular dushmanlikka borishadi. Natijada Tang‘ut davlatini xam kuchsizlantirgan bu ikki davlatning o‘zaro urushi edi. Mazkur urushning asosiy sabablari kelishmochilik emas. Balki, tashqi siysatdagi uquvsizlikdir. Bunga sababchi asosiy omil milliy ruhdagi ta’lim va tarbiyani bo‘lmaganligidan deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

Ruscha adabiyotlar:

1. Bichurin N. Ya. //Mo‘g‘uliston haqida eslatmalar// -Sankt-Peterburg 1828.- S.173. 168-189 bet
2. Vorobev M V “ChzhurChjeni va Jing davlatlari” - Fan 1975. S. 322. 295-353str.

⁸⁰ Ce hai“Beijing 1976 nian” (侧海“北京1976年”)

⁸¹. Li Zhou Zhu, Bai Ping. “Liao jing xixia shi” Beijing 2000 nian 114-154 ye(李洲住, 柏平 “辽, 金, 西夏史” 北京2000年114-154页)

⁸² E. I. Kichanov “Tangutlar davlati tarixidan ocherk” “Fan” “Moskva” 1986 yil, 227-256-betlar.

⁸³ Vorobyov M.V. "Jurcheni va jing davlatlari" "Fan" "Moskva" 1975 yil 295-353 str.

3. Rozova M G//Jin xonadonining tarixi, qirollik Xitoyning shimoliy qismiga 1114 yildan 1234 yilgacha kirgan// -Fan Moskva Novosibirsk 1956 yil. -S81.56-112str
4. Shanyue//Xitoy tarixining qadimgi davrlardan afyun urushigacha bo‘lgan esesi// -Moskva-1959.S.184.182-186str.
5. Kychanov E.I. XII asrning VI birinchi yarmida mangollar.// O‘rta asrlarda Uzoq Sharq va qo‘shni hududlar. Sharq va Osiyo tarixi va madaniyati. // - Novosibirsk, 1980-S.302.296-305str.
6. Kichanov E. I. //Tangutlar Xitoy haqida (tangut birlamchi manbalariga ko‘ra) - O‘rta asrlarda Sibir, Markaziy va Sharqiy Osiyo. Sharqiy Osiyo tarixi va madaniyati. // Novosibirsk 1975-S120. 112-123 ko‘ch

Xitoycha adabiyotlar:

1. 李洲住， 柏平 “辽， 金， 西夏史” “北京2000年114-154页 (li Zhouzhu Baiping “Liao, Jin, Xixia shi”, Beijing 2000nian 114-154ye)
2. “二十四史” 北京1910年142-180页 (“Er shi si shi” Beijing 1910 nian 142-180ye)
3. 竹片 “辞海”北京1976年 (Zhu pian “Ce hai” Beijing 1976 nian)